

Lukmonova Salomat Gafurovna

Osiyo xalqaro universiteti

“Pedagogika va Psixologiya” kafedrasи o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodga milliy tarbiya asosini singdirishda oilaning o’rni va ahamiyati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar. Milliy tarbiya, boshlang’ich ta’lim, tarbiya jarayoni, samaradorlik, oila

Bugungi kunda har tomonlama sog’lom avlodni tarbiyalash masalasi davlatimiz va hukumatimizning ahmiyatga molik masalalaridan biridir. Har qaysi millatning o’ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o’rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar –yaxshilik va ezgulik, olivjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Darhaqiqat, oila muqaddas dargoh, unda boladagi barcha yuksak fazilatlar: mehr-oqibat, hamdardlik, saxiylik, mehmondo’stlik, vafodorlik, sabr-bardosh, e’tiqod, vatanparvarlik, kattalarga hurmat kabi insoniy tuyg‘ular shakllanadi, qaror topadi. Hech bir tarbiya obyekti bolaga oilachalik ta’sir ko’rsata olmaydi.

Bugungi kunda bola tarbiyasida maktab va oila hamkorligini tashkil etish dolzarb pedagogik muammo hisoblanib, bunda ota-onalar, sinf rahbarlari, va mahallaning roli va o’rni beqiyosdir. Avvalo hamkorlik natijasida bolalarda ma’naviy-axloqiy sifatlar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hamdardlik, do’stlik, mehribonlik, saxiylik, kattalarga hurmat kabilalar shakllantirib borilishi hamda ularning aqliy, estetik, jismoniy tarbiyalarini birgalikda olib borilishi davr talabidir. Zero, biz tarbiyalayotgan bolalar axborot asri qurshovida yashamoqdalar. Tevarak–atrofda tarqatilayotgan axborotlar bolalar ongiga ba’zan ijobjiy, ba’zan esa salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Shu bois ota-onalar, sinf rahbarlaridan yoki mahalladan bu masalaga jiddiy yondoshishlari talab etiladi. Bunda ular quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozim:

1. Jismoniy tarbiyaga alohida e’tibor berishlari; (ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to‘g’ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni va uyquni to‘g’ri tashkil etish va boshqalar)

2. Ma’naviy tarbiyani bola ongiga singdirishlari; (Bunda bolaga Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari, davlatimizning ramziy belgilari haqida ma’lumot berish, mustaqillik, Vatan haqidagi she’r va qo’shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an’analarimizni o’rgatish kerak bo‘ladi)

3. Bolada axloqiy sifatlarni muntazam shakllantirishi; (Bunda kattalarning o'rnak va namuna ko'rsata olishi muhim o'rinni tutadi. Zero, axloq kishilarning yurish-turishi, xatti-harakati va muomalasida namoyon bo'ladi, deb bejizga aytilmagan. Odob-axloqli farzand ota-onaning yuzi hisoblanadi)

4. Yosh avlodga estetik tarbiya berishni yo'lga qo'yish; (Bunda oila davrasida qo'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hakozolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirish jihatlardir)

5. Bolada mehnatga ishtiyoq va iqtisodiy tarbiyani shakllantirish; (Bunda ota-onalar bolaga boshqalarning mehnatini qadrlash, mehnat natijalarini ehtiyyot qilish, mehnatning insonga farovon hayot olib kelishini tushuntirishlari lozim bo'ladi. Mehnat bolalarda saranjom-sarishtalik, maqsad sari intilish, sabr - bardosh kabi xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Mehnat tarbiyasi ko'pincha iqtisodiy tarbiya bilan birgalikda olib boriladi. Bozor iqtisodiyoti davrida bolalarga iqtisodiy tarbiya berish muhim ish hisoblanadi. Chunki, oiladagi tejamkorlik, iqtisoduning farovonligi omildir). Umuman olganda oilada bolalarga tarbiya berishda ota-onaning bola tarbiyasiga bo'lgan e'tibori, oilaviy ishlarga javobgarligi, axloqi, muomalasi, asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekona tarbiyada bola tarbiyasida mehnat va turmushdagi ijobiy milliy an'analar katta rol o'ynaydi. Uzoq tarixga ega bo'lgan mehmondo'stlik an'anasi keyingi paytlarda ijtimoiy tushuncha va shakllar bilan boyib bormoqda. Yosh avlodni tarbiyalash - murakkab va ko'p qirrali jarayon. Darhaqiqat, yoshlarni har tomonlama, ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok qilib tarbiyalash shu kunning muhum va dolzarb muammolaridan biriga aylanib qoldiki, bu davr va bugungi turmushimizni taqozosidir. Inson va uning baxt-saodati haqida, uning qadryatlari haqida g`amxo'rlik qilish, qayg`urishni xayriyatki, hechdan ko'ra kech bo`lsada tushunib angladik. Bu yo`qotib qo`ygan milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz yana qaror topdi. Bu albatta kelgusi avlod uchun katta baxt.

Oila jamiyatning ajralmas zarur qismidir. Unda inson dunyoga keladi. Shu paytda oila insoniyatning uzlusiz naslini davom ettiruvchi bo`lib qolaveradi. Shundan kelib chiqib, oila ikkita ulkan ijtimoiy vazifani farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga to`g`ri tarbiya berishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Chunki oilada katta yoki kichik narsa bo`lmaydi. Hamma narsa, hatto eng oddiy bo`lib ko`ringan oilaviy munosabatlar bolaga katta ta`sir ko`rsatadi. Ayniqsa, rostgo`ylik, samimiylilik, sadoqatli, shirinsuxan bo`lish bola kamolatida beqiyos hayotiy muhim vositadir. Bu borada axloq-odobga oid "Hadis" namunalarida shunday deyiladi. Gaplarning yomonib bu yolg`onchilikdir. Yolg`onni hazil bilan ham jiddiy ham gapirib bo`lmaydi. Ota o'z bolalariga biron narsani va`da qilib so`ng uni bajarmay qo`ymasin! Rostgo`ylik ezgulikka boshlaydi, yovuzlik esa jahannamga. Rostgo`y odamga yaxshi baho, yomon odamga yomon baho beriladi. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi. Oilada yoshlarga yaxshiroq ta`sir ko`rsatish uchun avvalambor ularni sevish va

hurmat qilish lozim. Chunki kuzatishlardan ma`lum bo`lishicha bolalar ularni seva olgan hurmat qila olganlarning qadrlaydilar, bergan maslahat va yo`l-yo`riqlarning, turli topshiriqlarni bajonidil ado etadilar. Zero ota-onaning mehr-muhabati, chinakam hurmati bolalarda eng go`zal axloqiy tuyg`ularni, ayniqsa qadryatni his qilishda yordam beradi. Bu esa unda kattalar orasida ham kamyop bo`lib qolgan insoniylik sifatlardan hisoblanadi. Bolaning kelajakda qanday inson bo`lib yetishishi ko`proq ota-onasi va o`z oilasiga hamda unda tarkib topgan muhitga bog`liq.”Bola ota-onasidan qayerga ortib boradi” degan gap ayni haqiqat. Demak, farzandlar ota-onalarini davomchilaridir.

Yusuf Xos Xojib “oiladagi” eng ulug` fazilat ezgu qiliq va go`zal xulqdir. ikkinchisi rostlik, uchinchisi hayot hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa kishi baxtiyor bo`ladi, qut iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kishining xulqi go`zal bo`lsa uni barcha xalq sevadi. ”Xulqi yuz bo`lgan kishiga to`rdan joy tegadi” - degan edi.

Oilada bola tarbiyasi xususida gapirilganda yuqorida eslatib o`tganimizdek, uning asosiy manbasi muhabbat, ishonch, o`zaro hurmatni tashkil qiladi. Hech kimga sir emaski oilaning ko`rki ham totuvligi ham bekam-u ko`stligi ham farzandlarning qobilu - mo`minligi ham asosan ana shu allomamizning onalik mahoratiga, ayollik nozik qalbiga, yuksak hayosiga, qaynoq mehru muhabbatiga bog`liqdir.

Oilda ota-onaning shu oiladagi kattalarni yurish turishidan tortib so`z madaniyati, kiyinishi, kishilar bilan muomalasi, hatto atrof-muhitga munosabati va shu singari oddiy bo`lib ko`rinadigan holatlar ham bola tarbiyasiga katta ta`sir qiladi. Hozirda yoshlarni yetuk kishilar qilib tarbiyalash, ishlriga e`tibor keng tus oldi. Chunki jamiyatimizning kelgusi shu yoshlar qo`lida. Yoshlarni axloqan pok, jismonan sog`lom, yetuk kishilar qilib tarbiyalash oilaning oldiga qo`yilayotgan eng muhum talablardan biridir. Buning uchun har bir ota-onan o`z farzandining ezgu maqsadga intiluvchan, kattalarni e`zozlaydigan kichiklarga muruvvatli, o`qish va ishda matonatli qat`iy, tashabbuskor, uyushqoq, qiyinchiliklardan qo`rqmaydigan kishilar qilib tarbiyalashlari lozim. Ayniqsa, oilada katta yoshli bolalar bilan to`g`ri munosabatda bo`lish juda muhim ahamiyatga ega. Bola ulg`aygan sari kattalar buyrug`ini yoqtirmaydigan bo`lib boradi. Bu buyruq ko`pincha qarshilik ko`rsatish, xatto oqilona talablarni bajarishdan bosh tortish holatlarini ham keltirib chiqaradi.

Shunday paytlarda bolaga muomala tarzini o`rgatish lozim. Buyruq berish o`rniga ishontirish usulini qo`llash kerak, toki ana shu bola shu ishni qilishni shartligini tushunsin. Ana shunda bola har bir ishni ongli ravishda bajarishga tushunsin. Agar katta yoshdagagi bolaga pand-nasixat qilinaversa uning g`ashiga tegishi mumkin. Shunday hollarda pedagogik usulga murojat qilinsa yanada yaxshi bo`ladi. Kuzatishdan ma`lum bo`lishicha bolaga ota-onalarnig yoki oilaning katta a`zolarini hadeb nasihat qilaverishi ham ma`qul emas ekan. Buning o`rniga u bilan hamfikr, do`st kabi munosabatda bo`lish yaxshi samara berar ekan. Ba`zan ota-onan va bola o`rtasida voqealar bo`lib o`tadi. Shunday paytlarda ilgari bo`lib o`tgan ko`ngilsizlikni gapirib ko`ngilni g`ash qilmaslik

lozim. O`zbek milliy urf-odatiga ko`ra ko`pincha bolalarning tabiatiga baho berilganda uning ota-onasidagi mavjud xislatlariga nisbat berib baholanadi.

Qadimdan shunday gap qolgan “Qush uyasida ko`rganini qiladi” ya`ni, ha ota-onasiga tortibdi, deyishadi. Yaxshi xulq ham yomon xulq ham bolalarga avvalo ota-onalardan o`tadi.

Demak, har bir ota-onan o`z farzandiga yaxshi xislatlarni bolaligidan singdirgani ma`quldir. Shunda u ulg`aygan sari oriyatli, nomusli, burchni his qiladigan xushmomala, odobli, bemorlarga hamdard bo`ladi. “Hadisi sharifda” “Sabr va bardosh tangridan, shoshqoloqlik esa shaytondandir” degan ulug` so`zlarni eslab o`tish joizdir. Shunday ekan oilaning katta yoshdagagi a`zolarining bolaga qo`yadigan talablarni hamda ularga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishlarda so`z bilan ishning bir bo`lishi muhum rol o`ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Лукмонова, С. (2022). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHISINING RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH: Lukmonova Salomat Gafurovna, Boshlang’ich ta’lim nazariyasi kafedrasi o’qituvchisi, Buxoro davlat universiteti orcid 0000-0001-9040-0232. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 221-226.
2. Gafurovna, L. S. (2021). BOSHLANG’ICH SINFLARDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. In Научно-практическая конференция.
3. Lukmonova, S. (2020). Digital Educational Resources and its Importance in Teaching. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).
4. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020, Volume: 10, Issue: 5.
5. Лукмонова, С. Г. (2020). Цифровые образовательные ресурсы в педагогической деятельности. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY (pp. 34-39).
6. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020, Volume: 10, Issue: 5.
7. Gafurovna, L. S., & Pirniyazova, N. V. (2023). A System for Developing The Skills of A Future Primary School Teacher in the Use Of Digital Educational Resources. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 258-262.

8. Gafurovna, L. S. (2023). Mechanism for the Use of Digital Educational Resources by Future Primary School Teachers. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 123-128.
9. Gafurovna, L. S. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHISINING RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 300-309.
10. Gafurovna, L. S. (2023). THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL LEARNING RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12). Сайфуллаева, Н. Б., & Сайдова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. Научный журнал, (6 (40)), 101-102.
11. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 383-388.
12. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, 1(3), 102-107.
13. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 138-143.
14. Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7, 175-177.
15. Kozimova, N. A. (2024). OTA-ONALIK PSIXOLOGIYASI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 119-125.
16. O'ktam qizi Shukurova, M. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 96-99.
17. O'ktam qizi Shukurova, M. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 357-360.
18. Shahnoza Rustamovna, N. (2023). UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTION. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 378–382.
19. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. Modern Science and Research, 2(10), 333-336.
20. Ravshvnovna, K. S. (2023). THE ROLE OF THE CULTURE OF COMMUNICATION IN MODERN EDUCATION AND EDUCATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 356-361.

21. Ravshanovna, X. S. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O'RASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Лучший инноватор в области науки, 1(1), 814-819.
22. Hojiyeva, N. B. (2023). MODERN METHOD IN TEACHING MOTHER LANGUAGE LESSONS-USING THE CACOGRAPHY METHOD. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 434-439.
23. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT O'QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 52–62.
24. Tursunova, Z. N. (2023). START MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN CLASSROOMS. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 494-499.
25. Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 468-472.
26. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKIOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.
27. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/444>.
28. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 386-388.
29. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 339-344.
30. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 40-46.
31. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 54-60.
32. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. PEDAGOG, 7(4), 328-334.
33. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. European research, (3 (81)), 47-49.
34. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 918-924.

35. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 933-939.
36. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 882-887.
37. Akbarovna, I. S. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 888-893.
38. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 912-917.
39. Akbarovna, I. S. (2024). MATEMATIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 900-905.
40. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 875-881.
41. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 860-866.